

# Tish galaktikasidan qaytish

Kosmosni izlab





## Tish Gallaktikasining Qahramoniga Aylan!



Tishlarni qanday qilib to'g'ri tozalash kerak?

1 Floril tish pastasi bilan tishningni kuniga 2 marta yuvqin: nonushtadan so'ng hamda uxlashdan oldin



2 Tish cho'tkangini har 3 oyda almashir



3 Tish oralidagi karashni tozalash uchun har kuni tish ipidan foydalan



4 Tishni har safar tozalagandan so'ng ftondili og'iz chaysh suyuqligi bilan chayib tashla



5 Shirinlik va gazli suvlarni kamroq iste'mol qil - ular tishlarga zarar yetkazadi



6 Dadil boti - yiliga 2 marta stomatolog ko'rigidan o'tgin



1

**Tashqaridan**  
Har bir tishni milikardan tishning chetiga qarab, tepadan pastga tishqab tozala



2

**Ichidan**  
Har bir tishning ichki yuzasini milikardan tishning chetiga qarab supurgan holda tozala



3

**Jag' tishlar**  
Har bir tishning chayshli yuzasini oldinga va oringa harakatlanib tozala



4

**Old tishlarning ichki yuzasi**  
Tish cho'tkasingning uchidan foydalanib, tepa va pastgi old tishlarning ichki devorini supurgan holda tozala



5

**Til**  
Tilning tozalashni unutm

Tishlaringni tozalayotgan paytda suv je'mragini yopishni unutm



Odatdagidek, Tanya nonushtadan so'ng tishlarini tozalayotib: "Iye! Bu Skvish-ku" - deb hayratga tushadi.

Ekranda o'zga sayyoralik Skvishning yashil yuzi paydo bo'ldi. "Blurp-blup!!! Robo-mushuk Kosmos yo'qolib qoldi! Sening yordaming kerak!"








Skvish davom etadi: “Men uni sen do‘stlaring bilan Tish galaktikasini tark etganingdan buyon ko‘rmadim. U sening ortingdan Yerga ketgan bo‘lsa-chi?”

Tanya va Superjag‘ bir-biriga qaraydi: “Yo‘q!” Biroq undan so‘ng Superjag‘ Tanyaning maktab formasi yonida kichkinagina oyoq izlarini ko‘rib qoladi. “Vov!” – deb akillab qo‘ydi.

Demak, Kosmos shu yerda bo‘lgan. Shunday bo‘lsa, u qayerga g‘oyib bo‘lgan ekan? Bu murakkab jumboq, biroq Tanyaning ishonchi komilki, ular uni yechimini topishadi. U Skvishga qo‘rqmasdan va‘da beradi: “Biz uni topamiz!” Superjag‘ bunga javoban boshi bilan imlab qo‘yadi.

“Blurp! Men transportyor yuboraman”, – deb zudlik bilan javob beradi Skvish. “Omad, qahramonlar! Va rahmat”. Tanya va Superjag‘ dadil kayfiyatda. Chorlovga yana javob berish vaqti keldi.





Tanya va Superjag' transportyordan sakraydi. Ular Hindistonga tushib qoladi va ulkan tish cho'tkasini ushlab turgan Devni ko'rib qoladi: "Tishlarni nonushtadan so'ng va uxlashdan oldin ftoridli pasta bilan tozalash bu g'alaba tomon yo'ldir!" – deb do'stlariga tushuntirish berardi Dev.



“Ftorid tishlarni mustahkamlaydi va kariyes bilan kurashishga yordam beradi. Va shuni yodda tutingki, no‘xotdek hajmdagi tish pastasi ham katta ahamiyatga egadir”.

Tish cho'tkasiga qarata Dev davom etadi:

“Endi yaxshilab qarang, tish cho'tkasini qanday qilib to'g'ri ushlab kerak... To'xtang-chi, kim bu?! Tanya, senmisan?”

“Ha! Bu menman!” – kuladi Tanya.



Men va Superjag' Kosmosni qidirypmiz. U yo'qolib qoldi, biroq uni albatta topamiz!". Dev atrofga qaraydi: "U shu yerda edi. Men unga yangi tish cho'tkasini berdim va undan qanday foydalanish kerakligini ko'rsatdim. Keyin esa u bexosdan g'oyib bo'ldi".

Tanya bir oz jiddiylashgan holda o'ylaydi: "Demak, agar u tishlarini to'g'ri tozalashni o'rganib olgan bo'lsa, keyinchalik nimani izlagan bo'lardi?" Uch og'ayni birdaniga javob topadi:

"Tish tozalash uchun ipni!"

"Qani, Superjag'", - deydi Tanya. - "Tezroq Ariyani topamiz!"


Qahramonlar Nigeriyaga yo‘l oladi va u yerda Ariya katta ekran oldida turganiga duch keladi. “Ayni vaqtda kelding, Tanya!” – deb Ariya uni qutlaydi. “Qo‘shnilaringga tish tozalash uchun iplardan qanday foydalanishni ko‘rsatib berishga ko‘maklashib yuborasanmi?”

“Albatta!” – rozi bo‘ladi Tanya. – “Biz hammamiz har kuni tish tozalash uchun ipdan foydalanishimiz kerak. Ular tish cho‘tkasi yetmaydigan tishlar orasidagi karashni tozalaydi”.

Tanya ekranga imo qiladi. “Ipni albatta “C” harfi shakliga keltiring, – Ariya qo‘shimcha qiladi. – Ip har bir tish atrofida shunday shaklga kirishi kerak. Agar sizda birdaniga o‘xshamasa, kattalar yordam berishadi”.



## Tish tozalash uchun ipdan



“Vov!” deb akillab qo‘yadi Superjag‘. “Kosmos!” – Tanyaning esiga tushadi. U Ariyaga qarab: “Sen uni ko‘rmadingmi?”. “Ha! U shu yerda edi, biroq sizlar uchrashmaganga o‘xshaysiz”.


Tanya va Superjag‘ Ariya bilan xayrlashib transportyorga qayta sakraydi va izlashni davom etadi.





“Ola, Tanya!” – deb qichqiradi Paolo. – “Braziliyaga xush kelibsiz”. “Bu qanday labirint?” – qiziquvchanlik bilan so‘raydi Tanya.

“Men do‘stlarimga qanday qilib shirin tamaddilardan chetlashishni ko‘rsatmoqdaman. Bizning Tish galaktikasiga qilgan safarimiz menga shirinliklar tish karashi paydo bo‘lishiga imkon berishini o‘rgatdi, u esa kariyesga olib kelishi mumkin!





Endi buni bilgach, men barcha keriyes bilan kurashishi va Tish galaktikasi qahramoniga aylanishini xohlayman! – g‘urur bilan javob beradi Paolo. – O! Tish galaktikasi haqida gapirganda, sizdan oldin bu yerda kim bo‘lganini hech qachon topa olmaysiz”.

Tanya va Superjag‘ kim haqida gap ketayotganini darhol anglaydi. Ular yana Robo-mushukni qo‘ldan chiqarishdi! Tanya barmoqlari bilan sanaydi: “Demak, biz shuni bildikki, Kosmos Dev yonida tishlarni tozalash bo‘yicha darsda bo‘lgan, tish tozalash uchun ipdan foydalanish bo‘yicha Ariya bilan bir oz mashq qilgan va sendan shirinlik iste‘moli me‘yorini o‘rganibdi. Unga yorqin tabassum uchun yana nima kerak bo‘lishi mumkin?”

Superjag‘ xursand bo‘lib akillaydi: “Vov-vov-vov!”

Tanya qichqiradi: “Sen haqsan! Olg‘a!”





Tanya va Superjag' transportyordan sakrab tushadi va qarshisida Kosmosni ko'rishadi, u jasorat bilan stomatologik kreslo ustida o'tirardi. Uning tishlari sog'lom va mag'rur tabassum qilardi.

“Kosmos! – Tanya chaqiradi. – Biz seni butun dunyo bo‘ylab izlayotgan edik. Skvish sendan Tish galaktikasiga qaytishingni so‘ramoqda!”

Doktor Quyvon yonida jilmayib turardi: “Bir daqiqa, Kosmos parvoz qilishi bilan uni faxriy yorliq bilan taqdirlamoqchiman”. Doktor Quyvon robo-mushukning ko'ksiga yangi va yarqiroq Tish galaktikasi qahramoni medalini taqib qo'yadi: “Kosmos, sen tishlarni parvarishlash qanchalik muhim ekanini – tishlarni fluoridli tish pastasi bilan tozalashni, tish tozalash uchun ipdan foydalanishni, kamroq shirinlik bilan tamaddi qilishni bilib olding. Va nihoyat, sen stomatolog oldiga tishlaring salomatligini tekshirish uchun kelding. Endi sening yorqin tabassuming butun galaktikaga nur sochmoqda va hammaga sening jasoratingni ko'rsatmoqda!”

Kosmos xursandchilikdan yarqiramoqda. Superjag' uni transportyorga kuzatib qo'ymoqda. “Vov”, – deydi u o'zining jasur do'stiga. “Miyov”, – deb javob qiladi Kosmos. Do'stlari u bilan g'ururlanishadi.



Kosmos hamma bilan xayrlashib,  
uyiga – Skvishning oldiga yo‘l olmoqda.  
Endi u rasman Tish galaktikasi qahramonlari  
jamoasining yangi a‘zosiga aylandi.  
Superjag‘ do‘stini sog‘inadi, lekin endi  
Kosmosning ishi ko‘pligini biladi.  
U do‘stlari kabi kariyesga qarshi jasorat bilan  
kurashishga va qahramon bo‘lishga tayyor.


Yodda tuting!  
Siz ham Tish galaktikasi  
qahramoniga aylanishingiz mumkin.  
**Olg‘a! Dadil bo‘ling!**  
**O‘zingizga ishoning!**  
Tishlaringizni kuniga 2 marta  
tozalashni boshlang  
va biz hammamiz siz bilan  
g‘ururlanamiz!



# Tish galaktikasi qahramonlari



Tanya Tish galaktikasi qahramoni bo'lish uchun jasorat ko'rsatib, yovuz Chiriktish bilan kurashdi. Qizaloq qanday qilib tishlarni to'g'ri tozalash va og'iz bo'shlig'ini parvarishlashni boshqalarga o'rgatishi mumkin?



Superjag' do'stlarga yordam berish muhimligini biladi. Keling, Superjag' qanday qilib robo-mushuk Kosmosni sayohat davomida izlaganini ko'rib chiqamiz.



Dev o'z tanasini chiniqtiradi va tishlarini mustahkam saqlaydi. Qarang, u protezda qanday abjirlik bilan turibdi! Va Dev tish cho'tkasini qanday ushlaydigan va kerakli miqdorda no'xotdek ftoridli tish pastasini siqib chiqarishiga e'tibor bering.



Ariya do'stlariga kariyes bilan kurashishni o'rgatish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi. Tish cho'tkasidan foydalangandan so'ng tish orasidagi qolib ketadigan karashni tozalash maqsadida tish tozalash uchun ipdan "C" harfi shaklida foydalanishiga e'tibor bering.



Paolo shirinlik va gazli ichimliklar tishlarga zarar yetkazishini bilib oldi. Yaxshilab qarang, labirint haqiqiy hayotga o'xshar ekan: siz tishlar uchun foydali oqilona tanlov qilish va shirinliklarni cheklash orqali to'g'ri yo'l topishingiz mumkin.



Robo-mushuk Kosmos Tish galaktikasining haqiqiy qahramoniga aylanishi uchun uzoq safar qildi va yaxshigina mashaqqat chekdi. U koinotimizning qayerlarida bo'ldi va yorqin tabassum yo'lida nimalarni o'rgandi?



Doktor Quyon - bolalarga tishlarini parvarishlashda yordam beruvchi dono tish shifokoridir. Uning kabinetidagi rentgen apparati va boshqa tish davolash uskunalariga bir qarang. Kabinetda berkinib olgan Doktor Quyonlarni toping va sanab chiqing.

“Bir umrga yorqin tabassum” dasturi haqida [www.colgate.ru](http://www.colgate.ru) saytida batafsil ma'lumot oling.

# Colgate®

